BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING BILISH FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV TOPSHIRIQLARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Ravshanova Ferangiz Farxodovna
Osiyo xalqaro universiteti Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi fakulteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faolligini rivojlantirishda interaktiv o‘quv topshiriqlarining didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Interaktiv topshiriqlarning o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy mushohada yuritish, ijodiy yondashish va o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, bilish faolligi, interaktiv topshiriq, didaktik imkoniyat, mustaqil fikrlash, pedagogik texnologiya, o‘quv motivatsiyasi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimlarni tayyor shaklda qabul qilishidan ularni mustaqil izlanish va faol bilish jarayonida o‘zlashtirishiga o‘tishni taqozo etmoqda. Mazkur jarayonda darsliklardagi interaktiv topshiriqlar o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini rivojlantirish, bilim olishga qiziqishini kuchaytirish va o‘quv materialini ongli o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi muhim didaktik vosita hisoblanadi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari, idrok etish imkoniyatlari va individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda interaktiv topshiriqlarni tashkil etish ta’lim mazmunini o‘zlashtirish jarayonini faollashtirishga yordam beradi.

Interaktiv topshiriqlar o‘quvchining o‘quv materiali bilan faol munosabatga kirishishi, mustaqil qaror qabul qilishi, muammoli vaziyatlarga yechim izlashi va o‘z fikrlarini asoslashiga yo‘naltirilgan didaktik vositalardir. Ularning asosiy xususiyati o‘quvchini bilimlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida namoyon etishidadir.

Tadqiqotchi N.N. Azizxo‘jayeva pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratga oid tadqiqotlarida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, pedagogik faoliyatning metodik asoslari hamda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning ahamiyatini yoritgan. Ushbu nazariy qarashlar interaktiv topshiriqlarni o‘quvchilarning faol ishtirokiga yo‘naltirilgan holda ishlab chiqish zarurligini asoslashga xizmat qiladi.

B.X. Xodjayevning pedagogik ta’limga oid ilmiy qarashlari asosida esa o‘quv jarayonini tashkil etishda ta’lim maqsadi, mazmuni, metodlari va natijalari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash muhimligini ko‘rsatish mumkin . Shunga ko‘ra, interaktiv topshiriqlar faqat qiziqarli mashqlar majmuasi bo‘lib qolmasdan, aniq didaktik maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Xususan R. Ishmuhamedov va M. Yuldashevning innovatsion pedagogik texnologiyalarga oid tadqiqotlarida ta’lim jarayoniga interfaol metodlarni tatbiq etish hamda o‘quvchilarning faol ishtirokini tashkil etish masalalari yoritilgan . Bu yondashuv boshlang‘ich ta’limda muammoli savollar, didaktik o‘yinlar, mantiqiy topshiriqlar va hamkorlikdagi mashqlardan foydalanishning metodik ahamiyatini ochib beradi.

Shuningek, tadqiqotchilar R.A. Mavlonova va N.H. Rahmonqulova boshlang‘ich ta’limda pedagogik innovatsiyalar va integratsiya masalalarini tadqiq etib, ta’lim mazmunini takomillashtirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritgan. Mazkur yondashuv asosida interaktiv topshiriqlarni fanlararo bog‘liqlikda tashkil etish o‘quvchilarning bilimlarni yaxlit idrok etishiga ko‘maklashishi mumkin.

Boshlang‘ich sinf darsliklarida interaktiv topshiriqlarni ishlab chiqishda ularning muammolilik darajasi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligi, mustaqil faoliyatni rag‘batlantirishi va natijalarni

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

tahlil qilish imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratish zarur.Masalan, ona tili darslarida berilgan so‘zlar asosida turli mazmundagi gaplar tuzish va ularni taqqoslash, matematika darslarida bir masalani bir nechta usulda yechish, o‘qish savodxonligida esa matn qahramonlarining xatti-harakatlarini baholash kabi topshiriqlar o‘quvchilarning mantiqiy va ijodiy tafakkurini faollashtirishga xizmat qiladi. Interaktiv topshiriqlarni samarali tashkil etishda uchta metodik shart muhim ahamiyat kasb etadi: topshiriqning aniq o‘quv maqsadiga mosligi, o‘quvchiga mustaqil fikrlash imkoniyatining yaratilishi hamda bajarilgan faoliyat yuzasidan qayta aloqaning ta’minlanishi.

Boshlang‘ich ta’limda interaktiv topshiriqlardan maqsadli foydalanish o‘quvchilarning bilish faolligini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun muhim didaktik imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. - 160 b.
2. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: Sano-standart, 2017. - 416 b.
3. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Nihol, 2013. - 279 b.
4. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang‘ich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. - 272 b.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.